

DAROMADLAR VA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

QMII “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası dotsenti,

E-mail: salimaegamberdiyeva147@gmail.com; +99899 517 30 80.

Jo‘rayev Og‘abek Sherali o‘g‘li,

QDTU Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi bo‘yicha Magistranti

ogabekjurayev428@gmail.com; +99894 934 77 64

Samadova Marjona Feruzbek qizi

QDTU Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

marjonasamadova824@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada daromadlar va xarajatlar hisobini takomillashtirish, shunga bog‘liq bo‘lgan muammolar, muammolarni hal qilishning nazariy ma‘lumotlar yoritilgan. Bundan tashqari korxonalar xarajatlarining nazoratsiz o‘sishi, uni bartaraf etish uchun optimallashtirish zaruriyati, xarajatlarni tejash uchun maqsadli dasturlarni ishlab chiqish, ushbu dasturning ahamiyati shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida xarajatlarni tejashning ilg‘or usullarini taklif va xulosalarini berish hamda xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan takliflar haqida ham ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. daomad, xarajat, xalqaro standart, sof foyda, foyda va zarar, boshqa umumlashgan daromad, qayta baholash, valyuta kursidagi farq.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические аспекты совершенствования учета доходов и расходов, связанные с этой проблемы и способы их решения. Кроме того, освещаются неконтролируемый рост издержек предприятия, необходимость оптимизации для его устранения, разработка целевых программ экономии затрат, важность таких программ, а также предлагаются рекомендации и выводы по передовым методам экономии затрат в производственном и сервисном секторах и предложения, направленные на оптимизацию издержек.

Ключевые слова: доход, расход, международный стандарт, чистая прибыль, прибыль и убытки, прочий совокупный доход, переоценка, разница обменных курсов.

Abstract. This article examines the theoretical aspects of improving income and expense accounting, associated problems, and solutions. It also highlights the uncontrolled growth of enterprise costs, the need for optimization to address them, the development of targeted cost-saving programs, and the importance of such programs. Recommendations and conclusions on best practices for cost savings in the

manufacturing and service sectors are also offered, along with proposals for cost optimization.

Key words: income, expense, international standard, net profit, profit and loss, other comprehensive income, revaluation, exchange rate difference.

Kirish. Korxonalar faoliyatini nazariy va amaliy o'rganish jara'ida daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili bo'yicha ko'plab masalalariga alohida e'tibor berilgan lekin, ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijasida hali tarmoqda daromadlar va xarajatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini pasaytirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Mazkur holat esa hozirgi milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini belgilab berdi.

Jaxon mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, davlatlar o'rtasida insonparvarlik yordamlarining kengayishi, shaharlar ko'payishi, moddiy resurslarni ishlab chiqarish hamda iste'molning o'sishi, o'zaro munosabatlarda xarajatlarni pasaytirish masalalari xarajatlari hisobini yuritish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xarajatlarini asosan, uch guruhga: doimiy, vaqtinchalik va bilvosita xarajatlarga bo'lib hisobga oladilar.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va tyexnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish" kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish va hisobini takomillashtirish zarurligini ko'rsatib beradi.

Jahon amaliyotida daromadlar va xarajatlarni boshqarish, moddiy xarajatlarning tarkibiy tahlili, boshqaruv hisobini tashkil etish, xarajatlarni boshlang'ich hisob xujjatlari ma'lumotlarini umumlashtirish, xarajatlarni boshqarish va hisobga olishda axborot- tahlil ma'lumotlar bazasini o'rganish, kam xarajatli yuqori samarador loyihalarni ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu holat tanlangan tadqiqot mavzusi doirasida maqsadli yo'nalishlarni belgilash uchun asos bo'ladi.

Daromad va xarajatlarni xalqaro standartlar talabi asosida hisob-kitobini tashkil etish va hisoblarda aks ettirishda quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- korxonalarda daromadlarni hisob obykti sifatida tan olish;
- daromadlarni tarkibiy strukturasi bo'yicha hisobga olishni tashkil etish;
- korxonalarda xarajatlar hisobga olishni takomillashtirish orqali
- tannarxni pasaytirishga, daromadlarni oshirishni ta'minlash imkonini beradigan schyotlarni ochish va ma'lumotlarni anatitik ahamiyatini oshirish;

-amaliy tajribalarga tayangan holda, muammolarni aniqlash, xususan, daromadlar va xarajatlarni hisobga olish bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Hisobini yuritishni takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardan iborat. Daromadlar va xarajatlarni hisobini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni ba'zi nazariy, tashkiliy va metodologik jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan T.N. Syso T.N. Sysolarning "Kompaniya xarajatlarini boshqarishni optimallashtirish" nomli ilmiy maqolasida Rossiya korxonalari xarajatlarning nazoratsiz o'sishi, uni bartaraf yetish uchun optimallashtirish zaruriyati, xarajatlarni tejash uchun maqsadli dasturlarni ishlab chiqish, ushbu dasturning ahamiyati shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida xarajatlarni tejashning ilg'or usullarini taklif va xulosalarini berib, xarajatlarni optimallashtirishga harakat qilgan.¹

Tatyana Sergeevna Kazuyeva Korxona daromadlari va xarajatlarini boshqarish, J.Kluk, B.Elliot, A.Fridman, L.V.Eyxler, A.D.Sheremet, S.Strinkovskaya, O.S.Bulko, O.G.Tomorevskaya, N.V.Simkova, A.V.Maleeva, O.F. Yermishina, Borovkova I.N Korxona daromad va xarajatlarning hisobi. Masalan, sharq olimlari Ibn Haldun, Al - Farobiy asarlarida davlat xarajatlari va uning mohiyati ko'rsatilgan. Klassik iqtisodiy nazariya asoschilari U.Petti, A.Smit, D.Rikardo tomonidan davlat byudjeti daromadlari shakllanishida soliq tizimining o'rni va vazifalari yoritilgan. Ular davlatni iqtisodiyotga minimal ishtiroki tarafdorlari bo'lib, davlatning asosiy vazifalari mudofaa va ijtimoiy masalalar deb belgilaganlar.

Bu boradagi ayrim masalalar respublikamiz olimlaridan: M.Q.Pardayev, A.A.Karimov, M.M.To'laxo'jayeva, A.K.Ibragimov, I.N.Ismanov, Z.N.Qurbanov, B.K.Xamdamov, A.J.To'ychiyev, R.D.Do'smuratov, A.X.Pardayev, R.O.Xolbekov, K.B.O'razov, A.I.Aliqulov, K.R.Xotamov, F.R.Islomov, B.A.Hasanov, A.Z.Avloqulov, S.N.Tashnazarov, S.R.Egamberdiyeva² S.Qodirxonov va boshqalarning ilmiy ishlarida ham o'rganilgan.

Yuqoridagi olimlarning asarlarida korxonalar faoliyatini nazariy va amaliy o'rganish jarayonida daromadlar va xarajatlarni hisobi hamda tahlili bo'yicha ko'plab masalalariga alohida e'tibor berilgan lekin, ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijasida hali tarmoqda daromadlar va xarajatlarni hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini pasaytirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Mazkur holat esa hozirgi milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida korxonalarda

¹ T.N. Syso T.N. Syso. Optimizatsiya upravleniya zatratami predpriyatiya optimization of company cost management. Vestnik Omskogo universiteta. Seriya «Ekonomika». 2011. № 4. S. 135–143.

² S.R.Egamberdiyeva S.R., Jo'rayev O. Sh. QDTU magistranti, Samadova M.F. Xalqaro standartlar asosida daromadlar va xarajatlarni hisobini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati. Innovatsion iqtisodiyot. Ilmiy-amaliy elektron jurnal 1-jild. 1-son. yanvar, 2026.

buxgalteriya hisobini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini belgilab berdi.³

Buxgalteriya hisobini yanada isloh qilishning yeng dolzarb vazifalaridan biri tijorat tashkilotlarining daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobi va soliq hisobini tartibga solish tizimini takomillashtirishdan iborat.

Daromadlar va xarajatlarni hisobga olishni tartibga solish tizimining katta ahamiyati shundaki, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir tijorat korxonasining maqsadi foyda olish, ya'ni u olgan daromadni xarajatlar miqdoriga kamaytirishdir.

Korxonalarining daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini ilmiy asoslangan holda shakllantirish nafaqat foydani aniqlash uchun asos bo'libgina qolmay, balki uning faoliyati samaradorligini oshirish, uni oshirish uchun zaxiralarni izlash va safarbar etish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Davlat byudjetining daromad qismini shakllantirishning yanada barqaror bazasini yaratish kerak² deb hisoblagan.

Yilning moliyaviy natijasi va foyda turi yilni aniqlashga olib keladi. To'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan xarajatlarni samarali boshqarish zarurati ishlab chiqarilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi. Elementlardan biri sifatida tashkilotning daromadlari va xarajatlarini hisobga olishning ahamiyati buxgalter hisobidir deb takidlagan⁴

AQSH, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlar soliq to'lovchilarning daromadlarini aniqlashda, ma'lum bir davrdagi daromadlari mol-mulk o'sishini hisoblash uslubi orqali ya'ni qilgan xarajatlari orqali aniqlanadi. Soliq organlari bu uslub orqali daromadlarni aniqlashda, solig'i to'langan daromadlar va soliq to'lanmagan daromadlarga ajratilib olinadi. Solig'i to'lanmagan daromadlarni aniqlash uchun soliq organlari soliq to'lovchilarning xarajatlarini aniqlash orqali amalga oshiradi. Soliq to'lovchilarning xarajatlari guruhlariga, mulk egalikka o'tkazilishi bo'yicha xarajatlar, kundalik ehtiyojlar uchun sarflangan xarajatlar (statistika ma'lumotlariga asosan hisob kitob qilinadi), qarzlarni so'ndirishga qaratilgan xarajatlar va boshqa operatsiyalar bo'yicha qilingan xarajatlar o'rganilib, soliq to'lovchi haqidagi ma'lumotlar to'planilib, tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, daromad va xarajatlar hisobi byudjetlashtirish moliyaviy modelining muhim elementi hisoblanadi. Daromad va xarajatlar hisobi yordamida korxona faoliyati samaradorligini aniqlash mumkin. Shu boisdan daromad va xarajatlar summalarini ularning operatsion byudjetlar daromad va xarajatlari bilan bog'liqlikda tekshirish kerak.

³ "Journal of science-innovative research in uzbekistan" jurnali Volume 2, ISSUE 3, 2024. March ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869

⁴ Доходы и прибыль на счет бухгалтерского учета Semenova Fatima, Zulkarnayevna Kanamatova Zalina Olegovna

Darvoqe, daromad va xarajatlarni konsolidatsiyalash uchun talab etiladigan asosiy axborotlar funksional va investitsion byudjetlarni tuzish jarayonida tayyorlanishi kerak.

Daromad va xarajatlar modelini tuzishda asosiy muammolardan biri xarajatlar qismining shakllanish metodikasiga bogʻliq. Bunda asosiy eʼtibor mahsulot tannarxiga qaratilishi kerak, chunki mahsulot tannarxi avvalo daromad va xarajatlar byudjetida foyda summasiga taʼsir qiladi, shuningdek buxgalteriya balansida zahiralar va tayyor mahsulot qiymatiga taʼsir qiladi.

Xarajatlar toʻgʻrisidagi boshqa maʼlumotlar ham eʼtibordan chetda qolmasligi kerak. Yaʼni daromad va xarajatlar byudjetiga korxonaning barcha xarajatlari kiritilishi kerak. Xarajatlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarning toʻliq aks ettirilmasligi korxona faoliyatining haqiqiy holati xususida notoʻgʻri maʼlumotlar shakllanishiga olib keladi.

Bundan tashqari daromad va xarajatlar byudjetiga maʼlumotlar faqat funksional byudjetlar maʼlumotlaridan emas, balki investitsion loyihalar byudjetlaridan ham shakllanadi.

Masalan, korxona faoliyatini kengaytirish maqsadida loyihalash xarajatlari daromad va xarajatlar byudjetiga kiritilmasligi oqibatida, joriy davrda korxonaning foydasi oshishiga olib keladi. Yana shunday holatlar ham boʻladiki, korxona qimmat turadigan asosiy vositasini sotishi orqali foyda miqdori keskin oshib ketishi mumkin.

Korxona rahbariyati foydaning keskin oshib ketishi sabablariga eʼtibor qaratishi uchun daromad va xarajatlar byudjeti natijalarini chuqur tahlil qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Калонов М.Б. Даромадлар ва харажатлар ҳисоби услубиётини такомиллаштириш. Монография. – Т.: Iqtisod-moliya, 2019 йил. 254-б.
2. Kalonov M.B. Improving the organization of accounting and cost analysis of provision of cars. // Omics Publishing Management Journals. Илмий журнал, 2018 йил. 128-129 бетлар.
3. S.R.Egamberdiyeva S.R., Joʻrayev O. Sh. *QDTU magistranti*, Samadova M.F. Xalqaro standartlar asosida daromadlar va xarajatlar hisobini tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlari va ahamiyati. Innovatsion iqtisodiyot. Ilmiy-amaliy elektron jurnal 1-jild. 1-son. yanvar, 2026.
4. Т.Н. Сысо, Т.Н. Syso. Оптимизация управления затратами предприятия optimization of company cost management. Вестник Омского университета. Серия «Экономика». 2011. № 4. С. 135–143.
4. К.Камолов. “Давр харажатларининг ҳисобини ташкил этиш ва унинг аҳамияти”, Т., “Янги Ўзбекистоннинг умидли ёшлари” 1(2)-сон. 28.03.2022 й.
5. Ўразов К.Б., Пўлатов М.Э., Бухгалтерия ҳисоби. –Т.: “Инновацион

ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. 289-бет.

6. Н.Н.Макрушина “Оптимизация затрат на предприятии”

<https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-zatrat-na-predpriyatii/viewer>

7. Ваҳобов А. В., Ибрагимов А. Т., Молиявий таҳлил. - Т.: “Ўзбекистон”, 2002. 82-бет.

8. Ўразов К.Б., Пўлатов М.Э., Бухгалтерия ҳисоби. –Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. 289-бет

9. Malikov T., Haydarov N. Byudjet daromadlari va xarajatlari.–Т.: “Iqtisod-moliya”, 2007 у., 185-bet

10. Покудов А.В. Личные финансы. Секреты управления. М., 2006.